

TOPONIMLAR MAMLAKATLARNING TASHRIF QOG'OZI SIFATIDA

Sayidhoshimova To'tiyo Abulfayz qizi

Ingliz tilini o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari kafedrasi stajyor-o'qituvchisi,

Ingliz filologiyasi fakulteti, UzDJTU

sayidhoshimovat@gmail.com

+998914549875

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo makroshaharlar nomlarining kelib chiqishi haqida nazariy fikrlar ko'rib chiqilgan va tavsiflangan. Dunyoda hamma narsaning nomi bor. Atoqli ot ayrim bir narsani, predmetni, alohida obyektни bildiradi va hamma tillarda shunday aytiladi va yoziladi. Masalan, Samarqand deganda, respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan go'zal tarixiy shahar tushuniladi. Buxoro deyish bilan O'zbekistonning ko'hna shahri, shu nomli viloyat markazi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: toponimlar, shahar nomlari, mamlakatlar, tabiiy obyektlar, nomlar, til, shaharlar tarixi.

Hozirgi zamon tilshunosligida madaniyat va til o'rtasidagi munosabat eng dolzarb masalalardan biri bo'lib, uni lingvokulturologiya o'rganadi. V.V. Krasnix lingvokulturologiyani "dunyoning milliy manzarasi, lingvistik ong va mental-lingual kompleksning xususiyatlarini o'rganish bilan bevosita bog'liq bo'lgan til va nutqda madaniyatning namoyon bo'lishi, aks etishi va fiksatsiyasini o'rganadigan fan" deb ta'riflaydi.¹

Geografik nomlar (toponimlar) jamiyat olamining lingvistik manzarasining xususiyatlarini aks ettirib, xalqlarning tarixiy o'tmishi, madaniyati haqida muhim ma'lumotlarni yetkazadi, til tarixini o'rganish uchun manba hisoblanadi.

O'zbek olimlari toponimlarni yirik yoki mayda obyektlarning nomlari ekanligiga qarab makro va mikro toponimlarga ajratishadi.

Makrotoponimlar, qoida tariqasida, keng tarqalgan va keng qo'llaniladigan yirik – geografik ob'ektlarning nomlari. Makroshahar toponimlarining nomlanishi mamlakat nomlarini tanitishga xizmat qiladi, shuning uchun ham tur xil usullarda makroshahar nomlaridan foydalanilgan. Masalan, Amir Temur Samarqandning shuhratini oshirish maqsadida poytaxt atrofiga bir qancha qishloqlar qurib, o'sha vaqtdagi mashhur shaharlar nomini qo'ygan; Damashq, Parij, Sheroz, Bag'dod, Misr va boshqalar. Bularning ba'zilar hozir ham nomini saqlab keladi. H.Hasanov keltirgan ma'lumotga

¹ Krasnykh V.V. Ethnopsycholinguistics and linguoculturology. Gnozis. Moscow, 2002. – 284 p. 12

ko'ra, Yer yuzida 18 ta Amerika, 13 ta Vengriya, 9 ta Kanada, 5 ta Braziliya, 3 ta Italiya, 7 ta Venetsiya, 4 ta Praga, 4 ta Kiyev nomlari mavjud ekan. Amerikada Moskva, Parij, London, Uels, Nyukasl va boshqa shaharlar mavjud.

Geografik nomlarning bir obyektidan ikkinchi, ba'zan uchinchi, to'rtinchi obektlarga ko'chishi natijasida yangi makroshahar nomlari vujudga keladi. Masalan, Sirdaryo daryosi, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo shahri, Sirdaryo tumani; Chirchiq daryosi, Chirchiq shahri; Ohangaron shahri, Ohangaron daryosi; Zarafshon daryosi, Zarafshon shahri, Farg'ona vodiysi, Farg'ona viloyati. Ayrim daryolar bo'yidagi shaharlar nomi daryo nomiga suffiks qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. Masalan, Angara daryosi - Angarsk shahri, Tom daryosi - Tomsk shahri, Ij daryosi - Ijevsk shahri, Or daryosi - Orsk shahri.

O'rta Osiyoda odatda daryolar qaysi aholi manzili yonidan o'tsa daryo nomi o'sha shahar nomi bilan ataladi. G'uzordaryo, Yakkabog'daryo, Amudaryo Yevropa va Rossiyadan daryolar nomi shaharga ko'chgan. Venetsiya shahar nomi janubiy Amerikaning Venesuela davlati nomiga ko'chgan. Amerika qitasida Yevropa shaharlarining nomlari ko'p ekanligini ko'rish mumkin.

Nomlarda ko'chish qonuniyati planitamizning hamma regionlarida davon nomi shu yerdan boshlanadigan soyga o'tadi. Qishloq nomi toqqa, tog' nomi shaharga, shahar nomi viloyatga berildi. O'rta Osiyoda aholi manzili nomi ko'pincha uning yonidan oqib o'tadigan daryoga Amudaryo, G'uzardaryo, Yakkabog' daryo boshqa regionlardan daryolar bo'yida paydo bo'lgan shaharga shu daryo nomi beriladida, shaharni bildiruvchi qo'shimcha bilan shahar nomi hosil qilinadi. Or'-Orsek Yenesiy-Yenesesik, Uj-Ujgorod shahar nomi daryoga ko'chish mumkin. Dushanbe shahri Dushanba daryosi nomidan ko'chib o'tgan.

Mahalliy makroshahar nomlaridan Toshkent shahriga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Toshkent nomining o'zi haqida ham turli fikrlar mavjud. Toshkent haqidagi fikrlar Klavdiy Ptolomey, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Zahiriddin Bobur asarlarida uchraydi. Toshkentning joy nomlarini Y.G'ulomov, H.Hasanov, N.Mallitskiy, V.Shishkin, M.Masson, S.Qorayev o'rganishgan.

Toshkent turli davrlarda turli nomlar bilan atalgan. Yozma manbalarda shaharning Tarkan, Binkent, Shosh, Choch, Joj, Tashkuna, Chjeshi, Tashixan, Toshkand, Toshkent nomlari mavjud. Ptolemey, Lifivos Petros deb atagan shahar ham aslida Toshkent bo'lsa kerak.

Toshkent nomining etimologiyasi haqida turli fikrlar mavjud. Y.D.Polivanov "mahalliy aholi arablarni tozi, tozilar deb atashardi. Toshkent nomi shu so'zdan kelib chiqqan. Toshkent shahri, tozilar shahari, musulmonlar shahri. Tozi – toshi, tosh so'ziga aylangan" deydi. Ya'ni Toshkent tosh so'zidan emas, tozi so'zidan kelib chiqqan

deydi.² M.Y.Masson Toshkent nomini choch so'zidan kelib chiqqan deb tushuntiradi. Arablar Chochni “Shosh” deb talaffuz qilishgan. Mahalliy aholi “shosh”ni “tosh” deb talaffuz qilgan. Toshkentning tosh qal'aga aloqasi yo'q deb tushuntiradi.

Abu Rayhon Beruniy “Binket – Shosh shaharlaridan biri. Turkiycha nomi Toshkent. Bu qadimgi yunonlarning Burj ul Hijora qal'asi” deb yozgan.³

Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'atit turk” kitobida “Tarkon Shoshning nomi. Shaharning haqiqiy nomi Toshkand, ya'ni toshdan qurilgan shahar” deb yozadi.⁴ Binobarin, Toshkent tosh va kent so'zlaridan tuzilgan.

H.H.Hasanov Toshkent nomining tahlili to'g'risida dalillar keltirib, quyidagicha xulosa qiladi: “Ikki ming yildan ziyodroq davr mobaynida faqat “tosh” so'zi (so'g'diycha “choch”, grekcha – “petros”, xitoycha – “shi”, arabcha – “hijora”) tosh shahar, tog'u tosh etagidagi shahar, tog' daryosi Chirchiq bo'yidagi shahar sharafigi saqlab turibdi. Bu nom ikki ming yil muqaddam ham ma'lum edi. Uni faqat mahalliy aholining bir qismi Choch, bir qismi Shosh shaklida yuritgan. Tarixda Toshkentning Tarkan, Binkent, Afrosiyob kabi nomlari ham uchraydiki, bular ma'lum davrlardagi shaharning bir qisminigina bildiradi”.⁵

Dunyo miqiyosidagi shunday makroshaharlar mavjudki, ularning nomlari mamlakat uchun tashrif qo'g'oz bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat toponomik jihatdan, balki turizm jihatidan ham o'rganilgan shaharlardir. Masalan, London – qadimgi rimliklarning “Londonium” so'zidan shakllangan deb taxmin qilinadi. Ammo yana bir taxminlarga ko'ra, u lotincha “Lond” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “o'rmon orasidagi yovvoyi joy” ma'nosini bildiradi. Boshqa bir taxminlarga ko'ra, “Llin” – “ko'l” va “Dun” – “mustahkamlash” so'zlaridan “Lludid” deb atalangan va keltlar davrida shahar shunday atala boshlangan.

Mamlakatning o'zi va ba'zi okruglarning to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Buyuk Britaniya Yevropadagi orol va uning ustida joylashgan davlatdir. U yangi davr boshida orolda yashagan britaniyaliklar xalqi etnonimining nomlariga asoslanadi. Buyuk Britaniya "kichik Britaniya" (lot. Britannia minor)ga qarshi edi, hozirgi Britanni (fr. Bretagne) — Fransiyaning shimoli-g'arbiy qismidagi yarim orol.

Ingliz grafliklarining aksariyat nomlarida *-shire (okrug)* elementi mavjud: *Shropshire, Oksfordshire, Yorkshire, Linkolnshir, Lancashire, Cambridgeshire; ammo istisnalar mavjud: Devon, Sasseks, Uesseks, Norfolk, Esseks, Kent, Tayn va Uer, Humbersayd, Gvent, Mersisayd.*

Buyuk Britaniyaning rasmiy tili ingliz tilidir, ammo bu mamlakatning geografik nomlari faqat qisman ingliz tilidadir. Ular orasida bir nechta toponimik fonlarni ajratib

² Мурзаев Э.М. Топонимика и география [Текст]: /Э. М. Мурзаев. – М.: Наука, 1995. – 304 с 54

³ Qonuni Ma'sudi II - jild, 576 – bet.

⁴ Devonu lug'atit turk, I, 414 - bet

⁵ Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. – T.: Fan, 1962. - 135 b. 101-bet

ko'rsatish mumkin, ulardan biri keltlardir. Tabiiy obyektlar (daryolar, tepaliklar) nomlari orasida kelt elementlari ko'p, aholi punktlari nomlarida esa kamroq. Ko'p sonli kelt nomlari Angliyaning g'arbiy hududlarida (Cheshir, Devonshire, Worcestershire va boshqalar) saqlanib qolgan. Ikki ingliz grafligi – Devon va Kent nomlari qadimgi britaniyalik Dumonii va Cantii qabilalaridan kelib chiqqan.

Ba'zi ingliz shaharlari kelt nomlariga ega: Dover, Reculver.

Ingliz joy nomlariga lotincha ta'sir juda kam. Britaniya orollarining 400 yillik Rim istilosining natijasi o'ziga xos lotin-kelt komplekslarining paydo bo'lishidir: *Londinium*dan London, *Cataractonium*dan Ketterik, *Lindum* Koloniyadan Linkoln, *Mancunium*dan Manchester. Sobiq Rim istehkomlari o'rnida joylashgan aholi punktlari nomlarida - *chester/caster* (lotincha castra - "lager") komponentining qo'shilganligini ta'kidlash kerak: *Chichester*, *Winchester*, *Doncaster*, *Lancaster*, *Chester*, *Colchester*, *Silchester*.

Navbatda esa Buyuk Biritaniyadagi ayrim makroshahar nomlariga to'xtalib o'tamiz:

Birmingem – Angliyadagi shahar. Sanoat bilan bog'liq, chunki "*Birminham*" so'zi sanoat shahri ma'nosini anglatadi. Unda elektron, oziq-ovqat, metallurgiya, mashinasozlik sanoati rivojlangan.

Brayton (Brighton) – Angliyaning janubiy qirg'og'ida, Sharqiy Sasseks grafligida, La-Mansh bo'yida joylashgan shahar. Odatda dam olish uchun tashrif buyiradiganlar soni talaygina.

Kembrij (Cambridge) – Angliyaning sharqidagi shahar. Lekin, birinchi navbatda, bu mashhur University of Cambridge – Kembrij universiteti – dunyodagi eng qadimgi va eng nufuzli universitetlardan biridir.

Chelsi (Chelsea) – Londonning tarixiy okrugi, ilgari shahar chekkasi. Ammo futbolni sevmaydigan odamlar uchun ham bu nom birinchi navbatda Angliyaning "Chelsia" futbol klubi bilan bog'liq.

Oksford (Oxford) – Angliyadagi shahar. "Oksford" Angliyadagi mashhur eski universitet, shuningdek, bu nom an'anaviy ravishda ko'ylak tikish uchun ishlatiladigan mato turi bilan bog'liq.

Shunday qilib, zamonaviy konnotatsiyalarni tahlil qilib, shuni aytishimiz mumkinki, ko'pincha Buyuk Britaniya makroshaharlar toponimlari teleseriallar, kitoblar, filmlar qahramonlari yoki serial nomlari futbol jamoalari va klublari bilan (Tottenxem, Sautgempton, Devon, Chesterfild va boshqalar); turli brendlar va kompaniyalar bilan (Avon, Lancaster, Chester, Richmond va boshqalar) universitet nomlari bilan bog'liq bo'lgan butun toponimlar guruhlar mavjud.

Parij (Fransiya) miloddan avvalgi 3-asrga keltlarning parizi qabilasi Sita oroliga kelib joylashgan va kichikroq qishloqqa asos solishadi. Tez orada qishloq shaharga

aylanadi va Lutetsiya nomini oladi. Milodiy 52 yilda shahar rimliklar tomonidan bosib olindi va unga "Parizalar shahri" nomi berildi. Keyinchalik u Parijga aylanib ketadi.

Niderlandiyaning yirik shahri va poytaxti Amsterdemga 1275-yilda asos solingan. Uning nomi daryo nomidan kelib chiqqan deyish mumkin, chunki shahar shimoliy Niderlandiyadagi Amstel daryo buyida joylashgan. Usha davrda daryo toshib, atrofini suv bosavergach, to'g'on quriladi. Niderland tilida to'g'on "Dum" deb ataladi. Shu tariqa "Amsterdam" so'zining ma'nosi "Amstel daryosidagi to'g'on" ma'nosini anglatdi.

Ispaniyaning Madrid shahri tarixi esa milodiy 932-yilga borib taqaladi va u Madjirit qal'asi atrofida barpo etilgan.

Berlin shahri Germaniyaning tashrif shaharlaridan biri bo'lib, u mamlakat poytaxti hisoblanadi. Shahr nomi nemischa "Vag", ya'ni "ayiq" so'zidan kelib chiqqan, degan taxminlar mavjud. Bunga sabab, Shahar gerbida ham ayiqning tasviri tushurilgan. Ammo buni aniq aytishning iloji yuq. Shaharning nomi slavyan tilidagi "Beri", ya'ni "botqoq" so'zidan kelib chiqqan.

Yana shunday bir shahar toponimlari borki, norasmiy nomlar bilan ham atalib keladi. Ana shunday toponimlar Amerika Qo'shma Shtatlari makroshahar nomlari bunga misol bo'la oladi.

Norasmiy joy nomlarini o'rganish dolzarbdir, chunki ular "muhim axborot salohiyatiga" ega.⁶ Ushbu til qatlamidan shaharning lingvistik ko'rinishi, fuqarolar va mehmonlarning unga munosabati, shuningdek uning tarixi va madaniyati haqida ko'p narsalarni bilib olish mumkin.

Bunday shaharlar mamlakat hayotida katta rol o'ynaydi, ularning tasvirlari mamlakat aholisi madaniyati va ongida mustahkamlangan. So'nggi paytlarda olimlar neofitsik toponimlarning keng tarqalishini Internet aloqasining keng tarqalishi bilan bog'lashdi, bu nafaqat turli mintaqalardagi odamlar bilan aloqa o'rnatishga imkon berdi, balki til inqilobining bir turiga hissa qo'shdi, ko'plab jargon shakllari va tilni buzish usullarini keltirib chiqardi. Yana bir sabab – bu geografik mobil telefonlarning ko'payishi-odamlarning yangiliklari, shuning uchun odamlar boshqa shaharlar haqida fikr bildirib boshladilar va o'z shaharlari ustidan fikr bildirib boshladilar.⁷

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov H. Geografik nomlar imlosi. – T.: Fan, 1962. - 135 b.
2. Krasnykh V.V. Ethnopsycholinguistics and linguoculturology. Gnozis. Moscow, 2002. – 284 p.

⁶ Басик С. Н. Общая топонимика: учебное пособие для студентов географического факультета. – Минск: БГУ, 2006. – 200 с. 27

⁷ Клименко Е. Н. Неофициальная оно- мастика современного города (на примере г. Екатеринбурга) // Научные ведомости Белгородского государственного универси- тета. – 2011. – № 6. – С. 5–8.

3. Басик С. Н. Общая топонимика: учебное пособие для студентов географического факультета. – Минск: БГУ, 2006. – 200 с.
4. Клименко Е. Н. Неофициальная оно- мастика современного города (на примере г. Екатеринбурга) // Научные ведомости Белгородского государственного универси- тета. – 2011. – № 6. – С. 5–8.
5. Массон М. Пошное Ташкента Изд. АН РУз. № 2. 1954.
6. Мурзаев Э.М. Топонимика и география [Текст]: /Э. М. Мурзаев. – М.: Наука, 1995. – 304 с.